

**BADIIY TARJIMADA MUQOBIL VARIANTLARNI
SHAKLLANTIRISH MASALASI
("Dunyoning ishlari" asari misolida)**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14600519>

Marhabo ABDULLAYEVA,

TDSHU o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston

Tel: 99 011 61 06;

E-mail: a.marxabo.r@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy tarjimada so'zlarning muqobil variantlarini shakllantirish masalasi o'rganiladi. Unda O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasining Mark Ris tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, asliyat, muqobillik, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос формирования альтернативных вариантов слов в художественном переводе. В ней проанализирован перевод на английский язык (переводчик: Марк Риз) повести Уткира Хашимова «Дела земные».*

Ключевые слова: *художественный перевод, оригинал, эквивалентность, межкультурная коммуникация.*

Annotation. *This article examines the issue of forming alternative variants of words in literary translation. It analyzes the English translation of Utkir Hashimov's short story "Such is life" by Mark Reese.*

Key words: *literary translation, original, equivalence, intercultural communication.*

Badiiy tarjima nafaqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish jarayoni, balki badiiy asarlarning ruhini tarjima tilida ifodalashga qaratilgan ijodiy faoliyatdir. Tarjimada, ayniqsa badiiy asarlarda, tarjimon original asarni faqat leksik va grammatik jihatdan, balki uning madaniy o'ziga xos xususiyatlarini ham saqlagan holda, yangi til va madaniyatga moslashtirishga harakat qiladi. Badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlar ustida ishlash tarjimaning turli xil versiyalarini yaratish imkonini beradi. Bu esa tarjimonning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu maqolada atoqli o'zbek adibi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" nomli asar va uning ingliz tiliga tarjimasi tahlilga tortildi. Badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni shakllantirish, shuningdek, tarjimonning

shaxsiy yondashuvi, uning original matnni tushunishi va uni yangi tilga moslashtirish qobiliyatini namoyon etadi. Tarjimaning muvaffaqiyati, ko'p hollarda, aynan shu muqobil variantlarning qanday shakllantirilishiga bog'liq.

Badiiy tarjima jarayoni nafaqat tilning o'zgartirilishi, balki asarning mohiyati, uslubi, va ma'nosining saqlanishi hamda yangi tilga moslashuvining murakkab jarayonidir. Tarjimon original asarning har bir so'zini, frazani, uslubiy xususiyatlarni, kontekstual o'zgarishlarni to'g'ri aks ettirishga intiladi. Asar tarjimasi faqat so'zlar va jumlar bilan chegaralanmaydi, balki madaniy, tarixiy, va ijtimoiy kontekstlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Shuning uchun, tarjima jarayonida ko'plab muqobil variantlarni shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Maqolaning asosiy maqsadi - badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Tarjimaning muqobil variantlarini shakllantirishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash.

"Dunyoning ishlari" asarining tarjimasi misolida, muqobil variantlarni shakllantirishda qo'llanilgan metodlarni tahlil qilish.

Tarjimada kontekstual va stilistik tanlovlarning tarjimonning ijodiy jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatish.

Tarjima variantlarining asar mazmuniga va uning madaniy kontekstiga ta'sirini o'rganish.

Tarjimaning muqobil variantlari – bu original matnning bir xil ma'nosini turlicha uslubda va ifoda shakllarida yangi tilga ko'chirishga qaratilgan variantlardir. Badiiy tarjimada bu variantlar ko'pincha o'zgaradigan kontekstga va maqsadli auditoriyaga moslashtiriladi. Tarjimada muqobil variantlarni shakllantirish orqali tarjimon asar mazmunini yanada boyitishi, uning stilistik va semantik qirralarini yaxshiroq aks ettirishi mumkin.

"Dunyoning ishlari" asarini tarjima qilishda muqobil variantlarni shakllantirish, asarning haqiqiy ma'nosini saqlagan holda, yangi tilga moslashtirilgan turli yondashuvlar va ijodiy qarorlar yaratishga olib keldi. Tarjimada ko'rsatilgan muqobil variantlar original matnni to'g'ri aks ettirishga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga, tarjimaning madaniy va lingvistik farqlarini inobatga olgan holda, asarni o'quvchiga to'liq etkazish imkonini berdi. Tarjimaning muvaffaqiyatiga erishish uchun tarjimonning ijodiy va texnik yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Tarjimaning har bir versiyasi o'ziga xos, lekin original asarning maqsad va mazmunini saqlashga qaratilgan edi. Shu bilan birga, muqobil variantlarning shakllantirilishi, tarjima jarayonidagi aniqlik va tafovutlarni tan olishda katta rol o'ynadi.

Asarda yuzaga kelgan barcha tarjima muammolarini hal qilishda, tarjimonning ijodiy yondashuvi va muqobil variantlarni yaratishdagi muvaffaqiyati o'ta muhim

ahamiyatga ega. Tarjimonning bir nechta variantlar yaratish orqali original asarning maqsadlarini to'g'ri aks ettirishi, matnning har bir qatlamini to'liq va chuqurroq ifodalashga yordam berdi. "Dunyoning ishlari" asarining tarjimasi, shuningdek, o'zbek badiiy adabiyoti va tilining boyligi, adabiy an'alarini, tarixiy va madaniy merosini boshqa tilga o'tkazishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engish uchun qanday ijodiy qarorlar qabul qilganini ko'rsatadi.

Natija va tahlillar: Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. Yozuvching "Dunyoning ishlari" qissasi oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turgani bois xorijiy tillarga, shu jumladan, ingliz tiliga ham o'girilgan. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarining Mark Ris tomonidan qilingan tarjimasida muqobillik muammolari ko'plab jihatlardan ko'rinishi mumkin. Muqobillik muammolari asosan quyidagi toifalarga bo'linadi:

Qissaning Mark Riz tomonidan bevosita o'zbek tilidan tarjima qilingan inglizcha variantini asar asliyatiga bilan qiyoslab, o'girmada milliylikning ifodalanishini kuzatamiz:

Asliyatda: ... Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loplatib suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan er hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Tarjimada: *There was supa under that almond tree. As soon as the sun sat down my mother used to water the yard, the smell of the land which had been heated during the whole day by the sun gave out a scent with basil, by that bench and everywhere would get silent then [2].*

Asliyat matnida keltirilgan supa etnografizmining ingliz tilida supa tarzida transliteratsiya qilinishi, rayhon o'simligining basil deb tarjima qilinishi orqali, milliy-madaniy xususiyat kasb etgan so'zlarni tarjimada berishning ikki xil usulini kuzatamiz. Shuningdek, tarjimada ko'loplatib aniqlovchisi tushurib qoldirilib, asliyatdagi bo'rttirib ko'rsatilgan ko'p miqdorda suv sepish jarayoni, shunchaki water so'zi yordamida ingliz tiliga o'girilishi ekspressivlikning susayishiga olib kelgan.

Asliyatda: Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

Oymomaxon xulla, Qanotlari tilla. Subhon Ollo sizga, Umr bersin bizga... Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi [9].

Tarjimada: *After that thin moon, like a tillaqosh would sail out into the sky full of numerous stars. Starring at the moon my mother used to whisper calmly: Dearest*

moon, With goldenwings. Subhonalloh to you Long life to us... Having sung this poem she used to caress my head. The moon used to stop sailing as if it wanted to listen to this enchants again, stars glanced with sad eyes, and mother used to tell fairy-tales [2].

Asliyatda tillaqoshga oʻxshatilgan oy ingichkaligi ingliz tilida tillaqosh koʻrinishida transliteratsiya qilingan va natijada asliyat mazmuni toʻliq ifodasini topa olmagan, chunki oyning tillaqoshdek tasvirlanishi yangichiqqan oyningyarqirrab turganini bildiradi. Shuning uchun bu vaziyatda New Moon birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq boʻlardi. Matnda oʻzbek xalqining yangi oy chiqishi bilan bogʻliq eʼtiqodiy qarashlari ham oʻz ifodasini topgan. Ajdodlarimiz yangi oy chiqqan paytda osmonga qarab ezgu niyatlar qilib, yangi oy va yillarga sogʻ-salamat yetkazishini tilab duoga qoʻl koʻtarishadi.

Asliyatdagi Oymomo xulla Qanotlari tilla murojaati ingliz tilida *Dearest, Moon, with Golden Wings* tarzida tarjima qilingan. Xulla soʻzining, hattoki, oʻzbek tili izohli lugʻatlarida ham berilmagani hisobga olinadigan boʻlsa, mutarjim qoʻllagan almashtirish usulini eng maʼqul usul, deb hisoblash mumkin, chunki asliyatda oyni erkalab, unga murojlat qilingan boʻlsa, tarjimada ham shu murojaat mazmuni saqlab qolingani kuzatiladi. Shuningdek, Subhonalloh soʻzining transkripsiya qilinishi hamda “*Subhanolloh – Recitation from Koran*”, yaʼni Qurʼoni Karimdan keltirilgan qiroat deya izohlanishi milliy ruhni yana bir marta namoyon etadi. Asliyatda: oymoma esa bu sehrli qoʻshiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq toʻxtab qolar, yulduzlar oʻychan koʻzlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.

Tarjimada: *The moon used to stop sailing as if it wanted to listen to this enchants again, stars glanced with sad eyes, and mother used to tell fairy-tales[2].* Muallif asliyat matnida oymoma va yulduzlarni jonlantirib, bolalarcha erkalangani, oʻychan koʻzlarini muloyim tikib turganini taʼsirli ifodalaydi. Kitobxon koʻz oʻngida bolakay yuzi gavdalanadi. Xuddi mana shunday jonlantirish badiiy tasvir ifodasi ingliz tili oʻgirmasida ham kuzatiladi. Biroq oʻychan koʻzlarni sad eyes, yaʼni gʻamgin koʻzlar, deb tarjima qilinishi natijasida yulduzning gʻamgin koʻrinishi gavdalanadi. Aslida esa oymomaning ona qoʻshigʻidan bolalarcha zavqlangani, yulduzlarning esa sokinligi anglashiladi. Shu oʻrinda thoughtful eyes birikmasini qoʻllash maqsadga muvofiq boʻlardi. Asliyat matnida keltirilgan yana bir parchaga eʼtibor qaratamiz:

Asliyatda: *Ochil. Ochil. Oq toshlar-a, Men onamni koʻrayin-a, Diydoriga toʻyayin-a [9].* **Tarjimada:** *Open up; open up, dear white stones. Let me see my mother again. Let me be satisfied of her face [2].*

Tarjima jarayonida shakl va mazmun birligi asar badiiyatini saqlashning muhim unsurlaridan biridir. Tarjimonning vazifasi esa Y.I.Resker taʼkidlaganidek, boshqa til

vositasi orqali asliyatning stilistik va ekspressiv xususiyatlarini saqlagan holda uning mazmunini aniq va butunligicha tiklashdir. Tarjima butunligi deganda, olim tarjima tilida mazmun va shakl birligining saqlanishini nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan she'riy parchaning asliyatidagi a-a-a qofiyasi tarjima variantida a-b-a shaklida ifodalangan bo'lib, birinchi va uchinchi misralar qofiyadorligiga erishilgan, ammo mazmundan yiroqlashilgan.

Asliyatdagi diydor so'zi biron narsa yoki kishi husnidan to'yib-to'yib zavq olish manosini beradi. Xuddi shu diydoringga to'yayin-a birikmasi ingliz tiliga be satisfied of birikmasi orqali o'girilgan. Satisfy leksemasi qoniqmoq ma'nosini ifodalaydi. Biroq Kembridj izohli lug'atida satisfied of – to make someone believe that something is true, ya'ni biror bir narsaning haqqoniyligiga birovni ishontirish, deb izohlangan. Ko'rinib turibdiki, mazkur ma'no diydorga to'ymoq ma'nosini ifodalamaydi. Odatda, uzoq muddat ko'rishmaganlar, ayniqsa, onalar farzandlarini biror erga jo'natish oldidan yoki aksincha, uzoq safardan qaytganida uning diydoriga to'yib olgisi, sog'inchini shu orqali ifoda etgisi keladi. Bu o'rinda diydor sog'inchini, qo'msashni ifodalovchi ingliz tilidagi miss so'ziga ekvivalent bo'lishi mumkin. Chunki miss – to feel sad that a person or thing is not present degan ma'noni anglatadi. Yuqorida keltirilgan qo'shiqdan qizaloq onasini juda ham sog'ingani va uning diydoriga to'yishni istagani talqin qilinadi. Hozirgi kunda badiiy tarjimaga oid ko'plab manbalarda badiiy asar mazmun-mohiyatini etkazib berish muhimligi ta'kidlanib kelmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda keltirilgan she'riy parchani quyidagicha tarjima qilish mumkin: *Open up, open up, open white stones, Let my mother's face be seen, I have missed that so much* [2]

O'zbek xalqi azaldan bolajon xalq bo'lgani bois, farzandni ulug' ne'mat hisoblashadi. Mahallakuy har bir bola tarbiyasiga birdek mas'ul bo'lib, mehr-muruvvat ko'rsatishadi. Ikkinchi jahon urushi vaqtlarida ham eng ko'p etim bolalarni asrab olib, o'z bolalaridek mehribonchilik qilishgan. Xalqning e'tiqodiga ko'ra etim bolani boshini silash savob hisoblangan. Quyidagi parchada ham etim bolalar haqida so'z yuritilgan.

Asliyatda: Ko'rdingmi, yaxshi o'smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak.
Tarjimada: *You see, it is smaller than others, we must take care of orphans.* [2]. Asliyatda keltirilgan rahm qilmoq fe'li insoniylikni ifodalab, ingliz tilida to look after someone or something, birovga g'amxo'rlik qilish ma'nosini anglatuvchi take care of frazeologik birligi ekvivalent sifatida tanlangan. Asliyat va tarjima variantida berilgan rahm qilmoq va take care of davlatimiz bosh siyosatiga ko'tarilgan yosh avlodni tarbiyalash g'oyasi bilan hamohang, chunki bu orqali yoshlarda insonparvarlik tuyg'usi shakllanadi [9].

Asliyatda: Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan go'rkov yuziga fotiha tortib o'rnidan turadi. **Tarjimada:** *Grave man with white yaktak and brown beards suited to himself made fotiha and stood up.* Asliyatda oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o'ziga yarashgan ta'rifi go'rkovga nisbatan aytilgan. Mazkur misolda oq surp yaktak o'zbek mentalitetini namoyon etsa, mosh-guruch soqoli orqali yoshi unchalik qari bo'lmagam otaxon ko'z oldimizda gavdalalanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida yaktak – bir qavat, astarsiz kiyim, uzun, ko'krak oldi ochiq, erkaklar ko'ylagi, deya sharhlanadi. Shuningdek, fotiha tortish harakati ham musulmonlarga xos. Ma'lumki, inson olamdan ko'z yumsa, dafn etiladi va bayram, hayit kunlarida marhum xotirlanib, uning ruhiga fotiha o'qiladi. Fotiha o'qimoq Qur'onning qisqa suralaridan birini o'qib, marhumning ruhiga xudodan mehru shafqat, ezgulik tilamoqlikni anglatadi. Mazkur misolda dafn marosimidan so'ng oq surp yaktak kiygan, moshguruch soqolli otaxon fotiha o'qib, o'rnidan turgani ta'kidlangan. Milliylikni ifodalaovchi yaktak va fotiha etnografizmlari ingliz tiliga o'girilmay, transliteratsiya usulida berilgan. Asliyatda: Gazetachining ishi bir tomondan uloqchi otga, ikkinchi tomondan omoch tortadigan otga o'xshaydi. Uloqchi otdek manzilga yuguradi-yu, er haydaydigan otdek har kuni omoch tortadi [9].

Tarjimada: *The work of the newspaper editor resembles to two horses: horse in the uloq and horse of plough. He runs to the address like a horse in uloq and ploughs land like a horse of plough...* [2.45] Asliyatda ta'kidlangan gazetachi uloqchi otga o'xshatilib, hamma ishni doim chaqqonlik bilan bajarishini anglatasa, omoch otga mengzalishi uning mehnati og'irligini bildiradi. Uloqchi ot tarjimada a horse in uloq singari ifodalanib, uloq so'zi transliteratsiya qilingan. Milliylikni ifodalovchi yana shunday bir misolni ko'rib chiqamiz. Asliyatda: Oyim kun chiqmasdan turib yo'laklarni supurardi. Biz aka-ukalar suv sepamiz[12].

Tarjimada: *Mother would sweep the passages in early dawn. We, brothers watered the street.* O'zbek xalqida erta sahardan turib, hovlini, yo'laklarni supurib, suv sepish odat tusiga kirib qolgan va bu bilan xonadonga fayzu baraka kirishiga ishonishgan lgan va bu bilan xonadonga fayzu baraka kirishiga ishonishgan.

Xulosa qismi: Badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni shakllantirish, tarjimonning ijodiy va ilmiy yondashuvini ko'rsatadi. "**Dunyoning ishlari**" asarining tarjimasi misolida, tarjimonning turli madaniy, falsafiy va tilshunoslik muammolarini hal qilishdagi yondashuvi ochib berildi. Tarjimada muqobil variantlarni shakllantirish orqali asar nafaqat til jihatidan, balki madaniyatlararo nuqtai nazardan ham to'g'ri aks ettirildi. Har bir variant o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, tarjimaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zaruriyat hisoblanadi. Shu sababli, badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni ishlab chiqish, asl asarning mohiyatini saqlash va yangi tilga moslashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qismi: Badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni shakllantirish, tarjimonning ijodiy yondashuvi va tilning madaniyatga moslashuvi uchun katta ahamiyatga ega. O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari misolida, tarjimadagi turli variantlar asarning haqiqiy ma’nosini saqlagan holda, yangi tilga ko‘chirilgan. Tarjimonning ijodiy yondashuvi, til va madaniyatlararo tafovutlarni inobatga olib, asar mazmunining aniq va to‘g‘ri tarjima qilinishiga imkon yaratgan. Shu tarzda, tarjimadagi muqobil variantlar badiiy tarjima jarayonida muhim vosita bo‘lib, asarning original ruhi va maqsadini saqlashga yordam beradi. Har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatlari, milliyligini namoyon etuvchi qadriyatlari, an’analari mavjud. Bunday milliylikka yo‘g‘rilgan asarlarni o‘zga tilga o‘girish tarjimondan katta mahorat talab etadi. Tarjimon tilni bilishdan tashqari shu xalq madaniyati bilan yaqindan tanishgan bo‘lishi lozim. Umuman olganda, bir tildan o‘zga tilga o‘girilgan asarlar orqali madaniyatlararo aloqalar mustahkamlanadi, bir-biriga yaqin bo‘lmagan xalqlar yaqinlashib, do‘stlik rishtalari bo‘g‘lanadi. Tahlil qilishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish mumkin:

Til va uslub: Hoshimovning o'ziga xos uslubi, xalq og'zaki adabiyotidan olingan elementlar tarjimada qanday aks etgani.

Madaniy kontekst: Tarjimada o'zbek madaniyatining xususiyatlari va an'alarining qanday ifodalanganligi.

Asar mazmuni: Hoshimovning hayot, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy masalalarga qaratgan e'tibori.

Tarjima sifati: Mark Risning tarjimasi asarning ruhini va maqsadini qanchalik to'g'ri etkazgani.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1] – Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar / Otkir Hoshimov. - T.: Yangi asr avlodi, 2015. - 336 b.
- [2] – Mark Reese, Abdullajon Ruziev “Such is Life”. Nashvilly, TN. 2024. – 253 p.
- [3] – Hamidov X., Abdullayeva M. (2024). Frazelogizmlarning o‘zbekcha muqobil variantlari va funksional xususiyatlari. *Konferensiyalar | Conferences*, 1(8), 14–21.
- [4] – Hamidov, X., & Abdullayeva, M. (2024). Alternative Versions and Functional Characteristics of Phraseologists in Uzbek. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 51–54. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2637>
- [5] – Abdullayeva M. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Agata Kristi asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida) (Monografiya). T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2024;148.

- [6] – Kasimova. R.R., & Baxshulloyeva.M.B. O‘tkir Hoshimovning “Dunyo-ning ishlari” qissasi inglizcha tarjimasida milliylik ifodasi. Образование и инновационные исследования (2023 год № 8), 37-40.
- [7] – Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: ИМО, 1974. – 254 с.
- [8] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. I.A –Д / Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Ж.V. Шукрона – Ҳ / 591б.
- [9] – Hoshimov O‘tkir. Affairs of Life. Stories. – Tashkent, 2013. –p.165.
- [10] – Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O. Tanlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Sharq, 2009. – B.
- [11] – Abdullayeva, M. R. (2024). BEVOSITA TARJIMADA FRAZEOLLO- GIZMLAR MA’NOSINI BERISH. *PEDAGOGS*, 56(1), 134-138.
- [12] – Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva. Dunyoning ishlari ingliz tilida Publisher. newjournal.org, Publication date.2024/9/4. Journal. Volume 52, Issue 3, Pages 141-146/